

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLÝUZIV TA'LIM TIZIMINI JORIY ETISHDA XORIJİY TAJRIBALAR

*Toshkent shahar Olmazor tumani 569 –son DMTT direktori
Abidova Gulnora Mirziyatovna*

Annotatsiya. Maqolada inklyuziv ta'lismi rasmiy ta'limda tushunchasi ancha kengroq. Bu ta'limda ko'proq o'qishda, o'rganishda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi. Inklyuziv ta'lismi orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limda qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash ko'zda tutildi.

Аннотация. В статье понятие инклюзивного образования в формальном образовании гораздо шире. Это образование в основном работает с детьми с ограниченными возможностями обучения. Посредством инклюзивного образования предусматривалось создать условия для всестороннего интеллектуального, нравственного, эстетического и физического развития детей дошкольного возраста, повысить доступность детей к качественному дошкольному образованию, обеспечить равный доступ к нему.

Abstract. In the article, the concept of inclusive education in formal education is much broader. This education mainly works with children with learning disabilities. Through inclusive education, it was envisaged to create conditions for all-round intellectual, moral, aesthetic and physical development of preschool children, increase children's access to quality preschool education, and ensure equal access to it.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lismi, maxsus ta'lismi, uydagi ta'lismi, resurs pedagog, integratsion ta'lismi, imkoniyatlar, maktabgacha ta'lismi, jismoniy rivojlanish.

Ключевые слова: инклюзивное образование, специальное образование, домашнее образование, ресурсный педагог, интегрированное образование, возможности, дошкольное образование, физическое развитие.

Key words: inclusive education, special education, home education, resource pedagogue, integrated education, opportunities, preschool education, physical development.

Inklyuziv ta'lismi rasmiy ta'lim tushunchasidan ancha kengroq. Maktabgacha ta'lismi sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lismi bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash ko'zda tutildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston

Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqildi. Bu maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim faoliyatidagi o'qituvchilarning hamkorligi bo'lib, inklyuziv ta'limga kiritilgan har bir o'quvchining imkoniyatlarini moslashuvchan ravishda hisobga olishga imkon beradi.

Inklyuziv ta'lim bu o'zi nima? INKL YUZIV - (inklyuziya - inglizcha [inclusion] - uyg'unlashish) Hamkorlikdagi ta'lim bo'lib, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng samarali, eng insonparvar ta'lim sifatida tan olingan. Imkoniyati cheklangan bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga sog'lom tengdoshlari bilan birga ta'lim olishidir. Inklyuziv ta'lim pedagog xodimlar va ota-onalar tomonida ta'lim jarayoniga ijodiy yondashuvni o'zida aks ettiradigan tabiiy jarayon hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim rasmiy ta'lim tushunchasidan ancha kengroq. Bu ta'limda ko'proq o'qishda, o'rganishda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi. Inklyuziv bog'chada tarbiyachi qanday sifatlarga ega bo'lish kerak? Inklyuziv ta'limda pedagogning kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi.

Yaponiyada maktabgacha ta'lim tizimi rivojlangan va har tomonlama mukammallikka intiladi. Mamlakatda inklyuziv ta'limga, ya'ni nogironligi bo'lgan yoki alohida ehtiyojli bolalarni umumiy ta'lim jarayoniga qo'shishga katta e'tibor qaratiladi. Yaponiyada inklyuziv ta'lim maktabgacha ta'lim darajasidan boshlab rivojlanadi va bu boradagi yondashuv har tomonlama chuqur va samarali bo'lib, quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

Inklyuziv ta'limning asosiy jihatlari:

Yondashuvning asoslari:

- ***Yaponiyada inklyuziv ta'limning maqsadi*** — har bir bolaga, qaysi ehtiyojga ega bo'lishidan qat'i nazar, sifatli ta'lim va rivojlanish imkoniyatini yaratishdir.

- Bu yondashuv bolalarning teng huquqlilagini ta'minlash va jamiyatdagi ijtimoiy xilma-xillikni qo'llab-quvvatlashga asoslangan.

Nogironligi bo'lgan bolalar uchun qulay sharoitlar:

-  Maxsus jihozlangan maktabgacha ta'lim tashkilotlari.
-  Maxsus o'qituvchi va yordamchi xodimlarning mavjudligi.
-  Jismoniy va ruhiy chekllov larga ega bolalar uchun individual o'quv rejalarini ishlab chiqish.

Maxsus va umumiyligi ta'limning integratsiyasi:

❖ Nogironligi bo'lgan bolalar umumiylar ta'limga muassasalarida o'qish imkoniyatiga ega, shu bilan birga ular uchun zarur bo'lgan qo'shimcha yordam xizmatlari taqdim etiladi.

❖ Maxsus ehtiyojli bolalar va boshqa bolalar birgalikda tarbiyalanadi, bu esa ularning ijtimoiy moslashuvini oshiradi.

Rossiyada mактабгача та'лимда инклизив та'лимга е'tibor so'nggi yillarda оrtib бормоqда. Inklyuziv ta'lim – bu barcha bolalar, shu jumladan, nogironligi bo'lgan yoki maxsus ehtiyojlari mavjud bolalar uchun ta'lim imkoniyatlarini taqdim etishni anglatadi. Rossiyada maktabgacha ta'limda inklyuziv yondashuvni rivojlantirish uchun bir qancha tadbirlar amalga oshirilmoqda:

➤ **Maxsus ehtiyojlarga ega bolalar uchun ta'lim dasturlari:** Rossiyada inklyuziv ta'lim dasturlari ishlab chiqilmoqda, bu esa nogiron bolalar va maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual o'quv rejalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

➤ **O'qituvchilarining malakasini oshirish:** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim bo'yicha malakalashish kurslari o'tkazilmoqda, bu o'qituvchilarni har bir bola ehtiyojiga mos ravishda ta'lim berishga tayyorlashga yordam beradi.

➤ **Davlat dasturlari:** Rossiyada davlat darajasida inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan turli dasturlar mavjud. Masalan, "Inklyuziv ta'lim" bo'yicha maxsus qonunlar va qarorlar chiqarilmoqda.

➤ **O'zgaruvchan maktabgacha ta'lim tashkilotlari:** Rossiyadagi ko'plab maktabgacha ta'lim muassasalari nogironliklar uchun qulay sharoitlar yaratish, o'quvchilarga ko'proq o'zini namoyon qilish imkoniyatlari berish uchun moslashmoqda.

➤ Bu inklyuziv ta'lim jarayonlari nafaqat nogiron bolalarga, balki ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan kam ta'minlangan oila farzandlariga ham yordam beradi.

Inklyuziv ta'limda jarayoni imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?

➤ o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi

➤ mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi;

➤ dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;

➤ o'qishga bo'lgan ehtieji va qiziqishlari ortadi;

➤ o'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;

➤ ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;

➤ yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo'qoladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Rossiyada maktabgacha ta'limda inklyuziv yondashuvning rivojlanishi muhim ijtimoiy va ta'limiy o'zgarishlarni taqdim etmoqda. Maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalarga individual ta'lim imkoniyatlari yaratish,

o'qituvchilarning malakasini oshirish va maxsus dasturlarni ishlab chiqish orqali inklyuziv ta'limga joriy etish jarayoni davom etmoqda. Bu nafaqat nogiron bolalarga, balki barcha bolalarga teng ta'limga imkoniyatlarini taqdim etishga xizmat qiladi va jamiyatda tenglik va inklyuziya tamoyillarini mustahkamlaydi. Maktabgacha ta'limga tizimida inklyuziv ta'limga ahaliyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog'lom bolalar qatoriga qo'shib sifatli ta'limga olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir. Nuqsoni bor bolalarni har tomonlama tarbiyash orqali ularni ona-Vatanga, tabiatga nisbatan go'zallikni his etishga, tafakkurini rivojlantirishga, bolalarning talab-ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2022). Nutq ustida ishlashning tizimli yondashuvlari orqali eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga tayyorlash. Pedagogik ta'limga innovatsiyon klasteri, 1(1), 350-352.
2. Ibadullayeva, S. N., Masaliyeva, S. (2022). Inkluyziv ta'limga sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirish omillari. Inklyuziv ta'limga, 1(2), 111-113.
3. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Nogironligi bo'lgan ota-onalik qaramogida bo'lgan yetim bolalarni ijtimoiylashtirishning metodik klasteri. Ta'limga innovatsion tadqiqotlar, 6(1), 280-286.
4. Sh.N.Ibadullayeva magistrlik dissertasiya “ Ta'limga klasteri asosida inklyuziv ta'limga samaradorligini oshirishning samarali omillarini aniqlash”2022 y.
5. D.S.Qaxarova “Inklyuziv ta'limga texnologiyasi” o'quv va metodik qo'llanma 2014-yil.